

## OILAVIY MUNOSABATLAR DESTРУКСИYASIDA NOGIRONLIGI BOR FARZANGNING ROLI VA ULARNI RUHIY REABILITATSIIYA QILISH CHORATADBIRLARI TAHLILI

Salimova Marjona Salomovna

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yoʻnalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6838771>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaviy nizolar va ajrimlarning sabablari, mamlakatimizda yuz berayotgan ajrimlarning statistik koʻrsatkichlari, nogironlik boʻyicha turli statistik koʻrsatkichlar, oilaviy munosabatlarga nogironligi bor farzangning oʻrni va shu haqida olib borilgan ommaviy soʻrovnoma natijalari tahlili, nogironligi boʻlgan bolalarni jamiyatga yoʻnaltirish uchun tavsiyalar yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** A.Antonov, oilaviy munosabatlar, imkoniyati cheklangan bolalar, R.Kappenberg, oilaviy zoʻravonlik, M.Bouen, L.S.Vigotskiy, nomukammallik tuygʻusi, Alfred Adler.

### АНАЛИЗ РОЛИ ДЕТЕЙ-ИНВАЛИДОВ В ДЕСТРУКЦИИ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ И МЕРЫ ПО ИХ ПСИХИЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются причины семейных споров и разводов, статистические показатели разводов, происходящих в нашей стране, различные статистические показатели по инвалидности, роль ребенка с инвалидностью в семейных отношениях, анализ результатов общественного опроса, проведенного по данному вопросу. и рекомендации по адаптации детей с ограниченными возможностями в обществе.

**Ключевые слова:** А. Антонов, семейные отношения, дети-инвалиды, Р. Каппенберг, насилие в семье, М. Боуэн, Л. С. Выготский, чувство несовершенства, Альфред Адлер.

### ANALYSIS OF THE ROLE OF DISABLED CHILDREN IN THE DESTRUCTION OF FAMILY RELATIONS AND MEASURES FOR THEIR MENTAL REHABILITATION

**Abstract:** This article analyzes the causes of family disputes and divorces, statistics on divorces in the country, various statistics on disability, the role of children with disabilities in family relationships and the results of public opinion polls, referral of children with disabilities to society.

**Keywords:** A.Antonov, family relations, children with disabilities, R.Kappenberg, domestic violence, M.Bouen, L.S.Vigotsky, a sense of imperfection, Alfred Adler.

### KIRISH

Jamiyatning birdamligi va yahlitligi haqida gap borganda, avvalo oilaviy munosabatlar koʻz oldimizga keladi. Zero oila jamiyatning asosiy boʻgʻini. Jamiyatda yuz berayotgan voqeahodisalar birinchi navbatda oilada shakllanadi. Oilaviy munosabatlar zaiflashuvi esa, jamiyat uchun misli koʻrilmagan zarba boʻlishi mumkin. Dunyoga kelgan har bir individ, avvalo oilada oʻsib rivojlanadi. Barkamollik sari ilk qadamlarni oila bagʻrida qoʻyadi. Oilaviy rishtalarning mustahkamligi, er-xotin munosabatlarining koʻngildagidek rivoji farzandlar kamoloti uchun debocha boʻlib, kelajak avlodning taraqqiyotini taʼminlovchi omildir. Ammo, oilaviy munosabatlardagi nizolar, oʻzaro kelishmovchiliklar, ajrimlar birinchi navbatda farzandlar ruhiyatiga salbiy taʼsir oʻtkazadi. Bu jarayonning jabrdiydalari ham aynan murgʻak qalblardir.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Shu o'rinda, oilaviy ajrimlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bunga sabablar turlicha:

- Farzandsizlik;
- Xiyonat;
- Uzoq vaqt davomida birga yashamaslik;
- Oilaviy kelishmovchiliklar;
- Yoshlarning oila qurishga tayyor emasligi;
- Juftliklardan birining sog'ligida yuz beradigan muammolar;
- Moddiy yetishmovchilik;
- O'zaro muhabbatning yo'qligi;
- Ichkilikbozlik yoki giyohvand moddalar ta'siriga berilganlik;
- Oiladan tashqari turmush;
- Onalikka tayyor emaslik;
- Qaynona-kelin munosabatlari kabi ko'plab holatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlarga hamohang tarzda bu boradagi ba'zi bir statistik ma'lumotlarni keltirib o'tishni joiz deb bildik:

O'zbekistonda 2021-yilning birinchi choragida 9213 ta ajrim qayt etilgan. Eng ko'p ko'rsatkich Toshkent shahrida, eng kam ko'rsatkich esa, Qaraqalpog'istonda ro'yxatga olingan. Gazeta.uz nashrining Davlat statistika qo'mitasi materiallariga tayanib keltirishicha, oilaviy ajrimlar xududlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

- Toshkent shahri –1331 ta;
- Farg'ona viloyati –999 ta;
- Andijon viloyati –995 ta;
- Toshkent viloyati –946 ta;
- Samarqand viloyati –912 ta;
- Qashqadaryo viloyati –711 ta;
- Namangan viloyati –682 ta;
- Surxondaryo viloyati –581 ta;
- Buxoro viloyati –500 ta;
- Xorazm viloyati –344 ta;
- Jizzax viloyati –337 ta;
- Sirdaryo viloyati 298 ta;
- Navoiy viloyati –289 ta;
- Qaraqalpog'iston respublikasi –288.

Yana bir e'tiborga molik jihat, statistika qumitasi ma'lumotlariga ko'ra jami nikohdan ajralish davrida 2021-yilning yanvar-iyun holatiga ko'ra:

- Farzandsiz ajrashish –51,8 %;
- Bitta farzand bilan ajrashish –27,8 %;
- Ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashish –20,4% tashkil qilganligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek mamlakatimizda ajrashgan oilalarning 33,8 % 1-4 yil yashagandan so'ng nikohni bekor qilgani, 40,4 % holatda ajrimlar moddiy muammolar tufayli kelib chiqayotgani keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarni bekorga keltirib o'tmadik. Ushbu ajrimlar ortida minglab murg'ak qalblarning ruhiy holati buzilishiga sabab bo'luvchi omillar yotibdi. Oilaviy nizolar ta'sirida voyaga yetayotgan farzandlar keyinchalik boshidan o'tkazganlarini aks ettishi shaksiz.

Shu o'rinda rus sotsiolog olimi A.Antonovning fikrlarini keltirib o'tamiz. "A.Antonovning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi". Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning normativ ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oilada o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o'rgatilgan bo'ladi, deb yozadi Vasila Karimova "Oila psixologiyasi" darsligida A.Antonov fikrlarini davom ettirar ekan.

Ko'rinib turganidek oilaviy qadriyatlar asosida voyaga yetgan bolalarda keyinchalik ham insoniy munosabatlar, yuksak hislar ustunlik qilib, bu kabi shaxslar, noxush holatlar, zararli odatlar, oilani parokanda qilishi mumkin bo'lgan, ko'ngilsizlikdan uzoq turadilar.

So'ngi yillarda, ayniqsa "covid-19" pandemiyasi davrida avj olgan, oilaviy zo'ravonliklar, ayollar va bolalarga bo'layotgan tajovuzkor harakatlar oilani himoyalashning alohida dasturini tuzish kerakligini ko'rsatdi. Amerikalik tadqiqotchi Myurrey Bouen AQSh da 20-asrning boshlarida boshlangan oilani himoya qilish harakatining asoschilaridan bo'lgan, ushbu harakatdan ko'zlangan maqsad-oilani alohida tadqiqotlar obyektiga aylantirish, shu orqali uning inson salomatligidagi benazir roldan foydalanish, hattoki, ruhan bemor bo'lganlarni davolashda oilaning imkoniyatlaridan foydalanish g'oyasini targ'ib etishdan iborat bo'lgan. Bouening fikricha, inson o'z umrini o'tkazadigan ijtimoiy guruhlardan eng muhimi-bu oiladir.

Ammo, kutilmaganda yuz beradigan holatlar inson aqlini shoshirib qo'yadi. R. Kappenberg -bu haqida shunday deydi: "Ba'zan oilaviy munosabatlarda favqulotda paydo bo'ladigan hodisalar ta'sirida shok ziddiyatlar paydo bo'ladi. Bu odatda kutilmaganda ro'y beradigan holatning oqibati bo'lib, oila a'zolari buni kutmaydilar"[3]. Olim -bu yerda, oilaviy xiyonatlar, noqobil farzandlar, oilaviy yoqotishlar kabi holatlarni nazarda tutgan, lekin yana shunday bir holat borki-bu ba'zan oilaviy nizolarga va hatto ajrimlarga olib kelishi mumkin. Gap jismoniy va yoki aqliy jihatdan sog'lom bo'lmagan farzandning dunyoga kelishi haqida bormoqda. Ba'zan, kutilmaganda yuz bergan -bu kabi holatlar oilalarni shoshirib qo'yadi. Turli ruhiy va emotsional holatlar natijasida bir qator ko'ngilsiz vaziyatlar yuz berishi mumkinligi sir emas.

L.S.Vigotskiyning yozishicha, shaxs taqdirini hal etishda nuqsonning o'zi emas, u orqali yuzaga keluvchi ijtimoiy-psixologik realizatsiya eng asosiy rolni o'ynaydi. Shu kabi kompensatsiya jarayoni ham kamchilikni to'g'ridan-to'g'ri to'ldirishga emas, u sababli kelib chiqqan muammolarni bartaraf etishga yo'naltiradi.

Bugungi kunda, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining "Butunjahon nogironlik hisoboti"ga ko'ra, nogironlikning qaysidir shakliga ega bo'lgan insonlar soni 1 milliarddan ziyodroq yoki dunyo aholisining 15%ni tashkil etadi, ularning 80% esa, rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi.

Mamlakatimizda so'ngi 10 yil davomida aholi orasida nogironligi bor deb topilgan insonlar ulushi 2-3 % ni tashkil etib kelmoqda.

Shuni aytib o'tish kerakki, nogironlikni qayt etishdagi bunday xalqaro va milliy tafovut, davlatlar o'rtasidagi xalqaro darajadagi standartlar va metodlarga muvofiq, kelishilgan ma'lumot to'plash tizimining yo'qligi oqibatida vujudga keladi.

So'ngi statistik ma'lumotlarga qaraganda ya'ni 2020-yil holatiga ko'ra, mamlakatimizda ro'yxatga olingan nogironligi bo'lgan insonlar 750 mingdan ziyodni tashkil etmoqda. Undan:

- 325 mingdan ziyodrog'i ayollar;
  - 420 mingdan ziyodi erkaklar hisoblanadi
- Shundan 100 mingdan ortig'ini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etmoqda. Bunga ko'ra:
- 55 ming nafarga yaqini o'g'il bola;
  - 45 ming dan ortig'ini qiz bolalar hisobiga to'g'ri keladi.

Shundan:

- 51 ming nafardan ziyodida tug'ma nogironlik mavjud;
- 49 ming nafardan ziyodida orttirilgan nogironlik mavjud.

Bugungi kunda mamlakatimizda 6 ta bolalar muruvvat uyi mavjud va unda:

- 2 ming nafarga yaqin, ya'ni nogironligi bor bolalarning 1,9 % parvarish qilinmoqda;
- 98 ming nafardan ziyod, ya'ni nogironligi bor bolalarning 98,1% o'z oilasida, ota-ona qaramog'ida ulg'aymoqda.

Shunga qaramay jamiyatimizda imkoniyati cheklangan shaxslar haqida turli noto'g'ri qarashlar mavjud. Buning asosiy sababi sifatida, aksariyat odamlar nogironligi bor kishilar bilan kam aloqada bo'lganligi tufayli shakllangan stereotiplar deyishimiz mumkin. Bu haqida O'zbekiston Respublikasining Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan chop etilgan "Nogironligi bo'lgan bolalar va kattalar ahvolining tahlili" nomli hisobotida shunday deyiladi. Xususan: Nogiron kishilar haqidagi dastlabki fikrlarini so'rashganda, nogiron bo'lmagan odamlarning ba'zilar rahm-shafqat, achinish va yordam berish istagini bildirgan. Biroq, javoblarning aksariyati yerga urishga asoslangan bo'lib, faqat kichik bir ozchiligi hurmat va tenglik bilan bog'liq his-tuyg'ulari bildirgan. Hissiy munosabat nuqtai nazaridan, faqat kichik bir ozchilik nogiron kishilarga odatiy munosabatda bo'lishni namoyish qilgan.

Odamlar nogiron qo'shnisini qabul qilishga tayyor, lekin nogiron kishini o'z hamkori yoki turmush o'rtog'i sifatida qabul qilishga tayyor emas...

Nogiron bolalar ixtisoslashgan maktablarda o'qishi kerak degan kuchli ishonch mavjud... Odamlarning deyarli 3/1 nogiron bolalar o'z oilalari bilan emas, balki muruvvat uylarida yashashlari kerak, deb hisoblashgan.

### TADQIQOT NATIJALARI

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, biz ham yurtdoshlarimiz orasida, shu haqida, ya'ni imkoniyati cheklangan farzangning oilaviy munosabatlarga ta'siri haqida anonim so'rovnoma olib bordik. So'rovnoma 3 ta vaziyatni o'z ichiga olgan bo'lib, turli xil tasdiqlardan iborat. So'rovnoma anonim tarzda olib borilganligi sababli yosh va jins tafovutlarini aniqlash imkonsiz. Ammo u orqali yurtdoshlarimizning nogironligi bor farzandning oilaviy munosabatlardagi roliga bo'lgan qarashlarini bilib olishimiz mumkin.

So'rovnomaning tahlil qiladigan bo'lsak, unda vaziyatlar quyidagicha qo'yildi:

**I.Deylik, oilangizda nogironligi bo'lgan inson bor, siz uni to'laqonli oila a'zoingiz sifatida qabul qila olasizmi?** (So'rovnomada 123 nafar inson ishtirok etdi).

T/R	Javoblar	Soni	%
-----	----------	------	---

1.	Qabul qila olaman, chunki shunga majburman	3 ta ovoz	2 %
2.	Qabul qila olaman, chunki –bu burchim	6 ta ovoz	5 %
3.	Qabul qila olaman, chunki –bu insoniylik.	10 ta ovoz	8 %
4.	Qabul qila olaman, chunki u mening oilamni bir bo‘lagi	97 ta ovoz	79 %
5.	Qabul qila olmayman	1 ta ovoz	1%
6.	Bilmadim	6 ta ovoz	5 %

**II.Sizningcha oilada nogironligi bor farzandning dunyoga kelishi nimalarga sabab bo‘ladi?**  
(So‘rovnoma 120 nafar inson ishtirok etdi).

T/R	Javoblar	soni	%
1.	Oilaviy nizolarga sabab bo‘ladi.	17 ta ovoz	14 %
2.	Oilaning buzilishiga sabab bo‘ladi, chunki hamma bir-birini ayblaydi.	9 ta ovoz	8 %
3.	Oilaning mustahkamligiga sabab bo‘ladi, chunki dardni yengish uchun birga harakat qiladilar	54 ta ovoz	45 %
4.	Nogironligi bor farzandning dunyoga kelishi oilaviy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatmaydi.	40 ta ovoz	33 %

**III.Oilada nogironligi bor farzand dunyoga kelsa, sizning harakatingiz?** (135 nafar inson so‘rovnoma ishtirok etdi)

T/R	Javoblar	soni	%
1.	Maxsus maktab internatlarda tahsil olishini ta’minlayman.	42 ta ovoz	31 %
2.	Muruvvat uyida yashashini ta’minlayman .	5 ta ovoz	4 %
3.	O‘zim boshqa bolalar kabi voyaga yetkazaman.	88 ta ovoz	65 %

### MUHOKAMA

So‘rovnoma natijalaridan shunday xulosa qilish mumkin: Jamiyatimizda yashayotgan insonlarning 22%i nogironligi bor farzandning oilaviy munosabatlardagi rolini salbiy baholagan. 45% holatda ijobiy va 33% holatda –bu ta’sirni neytral baholashga harakat qilgan. 79% holatda esa, so‘rovnoma ishtirokchilari, nogironligi bor insonni oilasining bir bo‘lagi bo‘lganligi uchun qabul qilishini aytgan. 42% holatda nogironligi bor farzandni maxsus maktab internatlarda tarbiyalash lozimligi va shunga sharoit yaratishni yoqlab ovoz berilgan bo‘lsa, 65 % so‘rovnoma ishtirokchilari nogironligi bor farzandni o‘zi, uyda boshqa farzandlari qatori tarbiyalashini aytgan.

Shu o‘rinda “Individual psixologiya” asoschisi–Alfred Adlarning shu boradagi tadqiqotlari asosida yuzaga kelgan so‘zlarini ta’kidlab o‘tish joiz. “Odam bo‘lish , avvalo, o‘zining nomukammalligini his etishdan iborat” deydi u. Hukmronlik va nomukammallik kompleksi haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan psixoanalitik olim, nomukammallik insonda ilk bolalik chog‘laridayoq vujudga kelishini aytar ekan, bunday bolalarda zaiflik, o‘ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, uyalish, o‘ziga past baho berish kabi holatlar kuzatilishi mumkinligini va bu keyinchalik ham davom etib shakllanib borishini uning g‘oyalariidan anglash qiyin emas. Alfred Adler to‘laqonli emaslik (nomukammallik) tuyg‘usini yengishning ikkita asosiy usulini ko‘rsatdi:

1. Kompensatsiya– saqlanganlarini kuchli rivojlantirish hisobiga buzilgan xislatlar ko‘rinishini kamaytirish;
2. Gipperkompensatsiya– buzilgan xususiyatni yuqori ishlash darajasigacha kuchaytiradigan mashq olib borish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, nogironligi bor bolalarni ijtimoiylikini oshirish uchun bir qator amaliy ishlar qilish lozim deb o‘ylaymiz. Bunga ko‘ra:

1. **Oilaviy muhitni yaxshilash**– bunda avvalo ota-ona va oilaning boshqa a‘zolari nogironligi bor bolaga nisbatan o‘zaro hurmat va tenglik munosabatlarini ko‘rsatishi, bolani kamsitilganlik ruhida ulg‘ayishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim;
2. **Inklyuzivlikni oshirish**– nogironligi bor bolani jamiyatdan uzmaganda barcha qatori ta‘lim olishini ta‘minlash;
3. **Nogironligi bor bolani va uning oilasini ruhiy rehabilitatsiya qilish**– bolaning ruhiy sohasiga qaratilgan bo‘lib, bola ongida uning hech kimga kerak emasligi xaqidagi tasavvurlarni yengib o‘tishga qaratilgan chora-tadbirlar.

Bularning barchasini amalga oshirish uchun imkoniyati cheklangan bola ulg‘ayayotgan oila a‘zolaridan tortib jamiyatning har bir a‘zosi, jumladan: mutaxassislar, pedagog-psixologlar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklanadi.

#### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytyshimiz mumkin-ki, sharqona mintalitet, diniy e‘tiqodimiz nuqtai nazaridan miskinlarga, mazlumlarga shavqat ko‘zi bilan qaraladigan jamiyatda yashaymiz. Imkoniyati cheklangan, jismoniy nuqsonga ega, ammo aqliy jihatdan yetuk bo‘lganlarga nisbatan ham –bu shavqat bilan qarash xos. Lekin qarashlarni o‘zgartirish, o‘zaro xurmat va tenglik munosabatlarini qurish vaqti keldi. Shundagina jismoniy yetuk bo‘lmagan bolalarning to‘laqonli hayot kechirishiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Ehtimol–bu ularning shaxs sifatida kamol topishi uchun qo‘yilgan ilk qadam bo‘lar.

#### **REFERENCES**

1. Alfred Adler “Praktika i teoriya individualnoy psixologii” -1995-yil.
2. L.S.Vigotskiy. Zamonaviy defektologiyaning asosiy muammolari. (Moskva davlat universiteti materiallari–M.1929-yil).
3. “Oila psixologiyasi”. Vasila Karimova. Toshkent 2007-yil. [1.53.b], [2.33.b], [3.27.b]
4. “O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan bolalar va kattalar ahvolidan tahlili” qisqacha hisobot BMT. 2019-yil. [5.11.b]
5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006 son farmoishi.
6. Davlat statistika qo‘mitasi materiallari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
7. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)